



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM




TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

11 (85) 2025

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВА
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Ташкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

11 (85)

2025

ноябрь

www.bsmi.uz

<http://newdaymedicine.com> E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

UDC 616

MUDDATDAN OLDIN TUG'ILISH XAVFINI BAKTERIAL VAGINOZ BO'LGAN AYOLLARDA ERTA BASHORATLASH

Usmonova Z.Y. E-mail: UsmonovaZ@bsmi.uz

Karimova G.K. <https://orcid.org/0009-0006-6485-3469> E-mail: gulrux_karimova@bsmi.uz

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro sh.

A. Navoiy kochasi 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Rezyume

Mazkur tadqiqotda bakterial vaginoz (BV) bilan og'rigan homilador ayollarda muddatdan oldin tug'ilish (preterm tug'ilish) xavfini erta aniqlash imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqot 21 nafar retrospektiv, 34 nafar prospektiv va 15 nafar sog'lom nazorat guruhidagi ayollar ishtirokida olib borildi. Klinik va laborator ko'rsatkichlar, vaginal mikroflora holati, hamda erta tug'ilish bilan bog'liq biomarkerlar tahlil qilindi. Natijalar bakterial vaginoz homiladorlikning erta tugash xavfini sezilarli darajada oshirishi va bu holatni erta tashxislash orqali xavfni kamaytirish mumkinligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: bakterial vaginoz, muddatdan oldin tug'ilish, vaginal mikroflora, biomarkerlar, homiladorlik xavfi.

РАННЕЕ ПРОГНОЗИРОВАНИЕ РИСКА ПРЕЖДЕВРЕМЕННЫХ РОДОВ У ЖЕНЩИН С БАКТЕРИАЛЬНЫМ ВАГИНОЗОМ

Усмонова З.Й. E-mail: UsmonovaZ@bsmi.uz

Каримова Г.К. <https://orcid.org/0009-0006-6485-3469> E-mail: gulrux_karimova@bsmi.uz

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан, г.

Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Резюме

В данном исследовании изучались возможности раннего выявления риска преждевременных родов у беременных женщин с бактериальным вагинозом (БВ). Исследование проводилось с участием 21 женщины в ретроспективной группе, 34 женщины в проспективной группе и 15 женщин в группе здорового контроля. Были проанализированы клинические и лабораторные показатели, состояние вагинальной микрофлоры, а также биомаркеры, связанные с преждевременными родами. Результаты показали, что бактериальный вагиноз существенно повышает риск преждевременных родов, и ранняя диагностика этого состояния позволяет снизить данный риск.

Ключевые слова: бактериальный вагиноз, преждевременные роды, микрофлора влагалища, биомаркеры, риск беременности.

EARLY PREDICTION OF PRETERM BIRTH RISK IN WOMEN WITH BACTERIAL VAGINOSIS

Usmonova Z.Y. E-mail: UsmonovaZ@bsmi.uz

Karimova G.K. <https://orcid.org/0009-0006-6485-3469> E-mail: gulrux_karimova@bsmi.uz

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, st. A.

Navoi. 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Resume

This study investigated the possibilities for early prediction of preterm birth risk in pregnant women diagnosed with bacterial vaginosis (BV). The research included 21 retrospective, 34 prospective, and 15 healthy control pregnant women. Clinical and laboratory parameters, vaginal microflora composition, and biomarkers associated with preterm delivery were analyzed. The findings demonstrated that bacterial vaginosis significantly increases the risk of preterm birth, and that early diagnosis and preventive interventions can effectively reduce this risk.

Keywords: bacterial vaginosis, preterm birth, vaginal microflora, biomarkers, pregnancy risk.

Dolzarbli

Muddatdan oldin tugʻilish (MTT) — homiladorlikning 37-haftasigacha boʻlgan davrda tugʻilish holatidir. Bu jarayon ona va bola oʻlimi, neonatal kasalliklar, hamda uzoq muddatli asoratlarning asosiy sabablari sirasiga kiradi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) maʼlumotlariga koʻra, har yili dunyo boʻyicha 15 milliondan ortiq bola muddatidan oldin tugʻiladi [15,16].

Muddatdan oldin tugʻruq dunyo sogʻliqni saqlashida eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu, asosan, muddatga yetmagan chaqaloqlar orasida yuqori oʻlim darajasi bilan bogʻliq [3,4,5]. Har 20 tugʻilishdan faqat bittasi, perinatal davrdagi chaqaloq oʻlimining 2/3 qismi muddatga yetmaganlik bilan bogʻliq ekanligi isbotlanga [1,6,14].

Mediko-sotsial ahamiyati shundan iboratki, homiladorlikning muddatidan oldin tugʻilishi tez-tez oʻzgarib turmaydi, muddatga yetmagan chaqaloqlarda perinatal oʻlim yuqori, ularni parvarishlash bilan bogʻliq mehnat va iqtisodiy xarajatlar katta, shuningdek, bu bolalar orasida bolalikdan nogiron boʻlib qolish yoki surunkali kasalliklarga chalinish holatlari yuqori [7,10].

Muddatidan oldin tugʻilishlar polietologik akusherlik patologiyasi boʻlib, u nafaqat klinitsistlar, balki fiziologlar, morfologlar, immunologlar, endokrinologlar va boshqa soha mutaxassislarining eʼtiborini tortadi. Shu bilan birga, bu asoratning etiologiyasi, patogenezi, diagnostikasi va oldini olish masalalari koʻplab hollarda hali ham ochiq qolmoqda [2,13].

JSST tavsiyalariga koʻra, muddatidan oldin tugʻilishlarni gestatsiya muddatiga qarab uch guruhga boʻladilar:

- juda erta (22–27 haftalar),
- erta (28–33 haftalar)
- asl muddatdan oldin tugʻilish (34–37 haftalar).

Bu tasniflash shundan kelib chiqadiki, muddatidan oldin tugʻilish etiologiyasi, ularni boshqarish xususiyatlari va natijalari ushbu davrlarda turlicha boʻladi [8,9].

Muddatidan oldin tugʻilishning ayrim sabablarida ijtimoiy omillar muhim rol oʻynaydi [11]. Ularga ayollarning kasbi, ayrim sanoat korxonalaridagi noqulay ish sharoitlari, onaning moddiy-mulk sharoitlari va homiladorlik paytida tibbiy xizmatning sifati kiradi.

Muddatidan oldin tugʻilish etiologiyasi koʻp va xilma-xil boʻlib, ularni uch asosiy guruhga ajratish mumkin:

- Ona organizmiga bogʻliq omillar;
- Homilaga bogʻliq omillar;
- Ona va homila oʻrtasidagi munosabatlarning buzilishi bilan bogʻliq omillar

Bakterial vaginoz (BV) esa homilador ayollar orasida keng tarqalgan vaginal mikroflora buzilishi hisoblanadi. U *Lactobacillus* turlarining kamayishi va anaerob bakteriyalar – *Gardnerella vaginalis*, *Mobiluncus spp.*, *Mycoplasma hominis* kabi mikroorganizmlarning koʻpayishi bilan kechadi. BV homiladorlikda yalligʻlanish mediatorlarining faollashuvi, bachadon qisqarishlarining erta boshlanishi va natijada erta tugʻilish xavfini oshiradi [12].

Tadqiqot maqsadi: bakterial vaginoz aniqlangan homilador ayollarda muddatdan oldin tugʻilish xavfini erta bashoratlash imkoniyatlarini baholashdir.

Materiallar va usullar

Buxoro shahar 1-son tugʻruq kompleksida 2023–2024 yillarda olib borildi. Tadqiqotga jami **70 nafar homilador ayol** jalb qilindi. Ular quyidagi guruhlariga ajratildi:

- **1-guruh (Retrospektiv):** 21 nafar BV tashxisi qoʻyilgan va homiladorlik muddatidan oldin tugʻilgan ayollar.
- **2-guruh (Prospektiv):** 34 nafar BV aniqlangan, ammo homiladorlikni davom ettirayotgan ayollar (kuzatuv ostida).
- **3-guruh (Nazorat):** 15 nafar sogʻlom, BV aniqlanmagan homilador ayollar.

Tadqiqot metodlari:

- Vaginal surtma mikroskopiyasi (Nugent mezonlari boʻyicha baholash)
- pH testi (vaginal muhit kislotali darajasi)
- Sitokinlar (IL-6, TNF- α) darajasini aniqlash
- Bachadon boʻyni uzunligi ultratovush orqali baholandi
- Klinik kuzatuvlar: erta tugʻilish, suyuqlik oqishi, yalligʻlanish belgilarini qayd etish

Statistik tahlil uchun **SPSS 23.0** dasturi ishlatildi. $p < 0.05$ qiymati ishonchli deb qabul qilindi.

Natijalar va tahlillar

1. Vaginal mikroflora tahlili

Retrospektiv guruhda *Lactobacillus* soni keskin kamaygan (oʻrtacha 10^4 CFU/ml dan past), *Gardnerella vaginalis* esa yuqori boʻlgan (10^7 CFU/ml). Prospektiv guruhda mikroflora muvozanati nisbatan tiklangan, ammo 40% hollarda anaeroblar ustunlik qilgan.

2. Sitokinlar va yalligʻlanish koʻrsatkichlari

IL-6 va TNF- α darajalari BV boʻlgan ayollarda sogʻlom nazorat guruhiga nisbatan 2–3 baravar yuqori aniqlangan. Bu yalligʻlanish jarayonining erta tugʻilish mexanizmidagi rolini koʻrsatadi (1-jadval).

Koʻrsatkich	Retrospektiv guruh	Prospektiv guruh	Nazorat
IL-6 (pg/ml)	45.3 ± 8.1	28.6 ± 6.4	12.7 ± 4.3
TNF- α (pg/ml)	39.8 ± 7.5	26.1 ± 5.9	10.4 ± 3.8

Jadval №1 Sitokinlar va yalligʻlanish koʻrsatkichlari

3. Bachadon boʻyni uzunligi

Erta tugʻilish xavfi boʻlgan BV ayollarida bachadon boʻyni uzunligi 25 mm dan kam boʻlgan hollarda muddatdan oldin tugʻilish chastotasi 68% gacha yetgan.

Tadqiqot guruhidagi ayollarda servikometriya oʻtkazilib aniqlangan natijalariga qarab profilaktik davolash ishlari oʻtkazilgan.

- Bachadon boʻyni qisqarishi aniqlansa, profilaktik davolash boshlanishi mumkin:
 - Progesteron qoʻllash (vaginal yoki intramuskulyar).
 - Bachadon boʻyni plastika (cerclage).
 - Aktiv hayot tarzini cheklash yoki shifokor nazorati ostida bedrest.

Olingan natijalar bakterial vaginoz homiladorlikda yalligʻlanish mexanizmlarini faollashtirishi va muddatdan oldin tugʻilish xavfini oshirishini koʻrsatdi. IL-6, TNF- α kabi yalligʻlanish markerlarini erta oʻlchash bu xavfni oldindan bashoratlash imkonini beradi.

Prospektiv kuzatuv natijalari shuni koʻrsatdiki, BV erta aniqlangan va antibiotik/probiotik terapiya bilan davolangan ayollarda muddatdan oldin tugʻilish hollari 2 baravar kamaygan. Bu esa tashxis va profilaktika ahamiyatini tasdiqlaydi.

Xulosa

1. Bakterial vaginoz muddatdan oldin tugʻilish xavfini sezilarli oshiradi.
2. IL-6 va TNF- α sitokinlarining oshishi erta tugʻilish uchun muhim prognostik belgi hisoblanadi.
3. Vaginal mikroflora tahlili va bachadon boʻyni uzunligini baholash orqali xavfli ayollarni erta aniqlash mumkin.
4. BV aniqlangan ayollarda erta davolash strategiyasi (metronidazol, laktobakteriyalar) muddatdan oldin tugʻilish holatlarini kamaytiradi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Romero R. et al. Microbial invasion of the amniotic cavity and preterm birth. // Am J Obstet Gynecol. 2015.
2. Nugent R. P. et al. Diagnostic criteria for bacterial vaginosis. // Am J Obstet Gynecol. 1991.
3. Leitich H. et al. Bacterial vaginosis as a risk factor for preterm delivery. // Obstet Gynecol. 2003.
4. WHO Report, 2023: Preterm Birth Statistics.
5. Oʻzbekiston Sogʻliqni Saqlash Vazirligi, Perinatal tibbiyot boʻyicha klinik qoʻllanma, 2024.

6. Qayumova, G.M. ҳаммуаллиф. "Muddatdan oldin qog'onoq suvinig ketishida xavf omillarning ta'sirini baholash." // Журнал гуманитарных и естественных наук, 2023;2(7):11-18.
7. Raju T.N.K. "Outcomes in Twins Compared With Singletons Subsequent to Preterm Prelabor Rupture of Membranes." // Eunice Kennedy Shriver National Institute of Child Health and Human Development, 22 Apr. 2021.
8. Raveena Shree.J. "Fetomaternal Outcome in Preterm Premature Rupture of Membranes: A Retrospective Study." Journal of Neonatal Surgery, 2025.
9. Sananès, N. et al. "Prediction of spontaneous preterm delivery in singleton pregnancies: where are we and where are we going? A review of literature." J Obstet Gynaecol., 2014 Aug; 34(6):457-61.
10. Skupski, Daniel W. "Preterm prelabor rupture of membranes: A focus on antenatal corticosteroids and latency." Seminars in Perinatology, 2022;46(1):151528.
11. Sola-Viso, R. "Novel biomarkers in the management of preterm premature rupture of membranes: A systematic review." European Journal of Obstetrics & Gynecology and Reproductive Biology, 2020;248:208-216.
12. Tincello D. G. "Preterm prelabour rupture of the membranes (PPROM): a study of patient experiences and support needs." Taylor & Francis Online, 2024.
13. Tosheva, I.I. and et all. "Labor outcomes in pregnant women with premature rupture of amniotic fluid." Bulletin of the Dagestan State Medical Academy, 2019;4(33):34-38.
14. Tosheva I.I. and et all. "The role of premature rupture of amniotic fluid on the development of obstetric complications." Collection of scientific papers based on the materials of the International scientific conference dedicated to the 85th anniversary of Kursk State Medical University, 2020;1:601-605.
15. Tosheva I.I.and et all. "Morphological and microbiological changes in the placenta in women with premature rupture of amniotic fluid." // Journal of Problems of Biology and Medicine, 2019;4.2(115):146-149.
16. Vounzoulaki Eleni. "Risk prediction models for preterm birth: a systematic review and meta-analysis." // British Journal of Obstetrics and Gynaecology, 2022;129(5):685-697.

Qabul qilingan sana 20.10.2025